



INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA BO'LAJAK MAXSUS PEDAGOGLARNI INTERFAOL USULLAR ASOSIDA ISHLASHGA TAYYORLASH

Maxmudov X.Sh.

*Qo'qon davlat pedagogika instituti
Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: inklyuziv ta'lim, innovatsion faoliyat, individuallashtirilgan ta'lim, hamkorlikda ishlash, interfaol usullar, inklyuziv ta'lim, defektolog, logoped.

Ключевые слова: инклюзивное образование, инновационная деятельность, индивидуализированное обучение, совместная работа, интерактивные методы, инклюзивное образование, дефектолог, логопед.

Key words: inclusive education, innovative activity, individualized education, collaborative work, interactive methods, inclusive education, defectologist, speech therapist.

Резюме:

Ushbu maqolada bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'lim jarayonida interfaol usullar asosida ishlashga tayyorlash yo'llari, inklyuziv ta'limda bo'lajak maxsus pedagoglarning innovatsion faoliyatini tashkil etish, ularning vazifalari, inklyuziv ta'lim defektolog va logopedlarining amaliyotda foydalanishi mumkin bo'lgan o'qitish texnologiyalari yoritilgan.

Резюме:

В данной статье могут быть использованы способы подготовки будущих специальных педагогов к работе на основе интерактивных методов в процессе инклюзивного образования, организация инновационной деятельности будущих специальных педагогов в инклюзивном образовании, их задачи, инклюзивное образование. Освещены практика дефектологов и логопедов, технологии обучения.

Summary:

In this article, the ways of preparing future special pedagogues to work on the basis of interactive methods in the process of inclusive education, the organization of innovative activities of future special pedagogues in inclusive education, their tasks, inclusive education can be used in practice by defectologists and speech therapists. teaching technologies are highlighted.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida, eng avvalo, kelajak avlodning barkamol bo'lib ulg'ayishi, hech kimdan kam bo'lmay dunyo arenalarini zabt etishga qodir farzandlar bo'lib etishishi kabi dolzarb masalalarni hal etish turadi. Ayniqsa, etim va ota-ona qaramog'isiz qolgan, nogiron, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat



va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblangan. Ushbu vazifani amalga oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan kishilarning huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta‘minlash, turmush faoliyatidagi cheklanish, chegaralarni bartaraf etish, ta‘limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuv, uning sifati va samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta‘limning uzviylik va uzluksizligini ta‘minlash borasida talaygina ishlar amalga oshirib borilmoqda. [5.6]

Inklyuziv ta‘limni oiladan maktabgacha ta‘lim muassasalarida, umumta‘lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv muassasalarida joriy etish natijasida imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan umumiy munosabat o‘zgarayotgani ma‘lum bo‘ldi. Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Inklyuziv ta‘lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta‘lim jarayonidagi barcha tadbirlarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi. Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko‘rsatiladigan individual yordam imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib qo‘ymaydi. Ular olgan ko‘nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo‘lishadi. Imkoniyati cheklangan insonlar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga reja asosida joriy etilayotgan inklyuziv ta‘lim strategiyasi o‘qishning uzluksiz va muttasilligini ta‘minlaydi. Oila – bolalar bog‘chasi – maktab – kasb-hunar kolleji – ish bilan ta‘minlash – ushbu tizim kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarini umumta‘lim muassasalari va oliy o‘quv yurtlariga bimalol, xavfsirasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi.

Inklyuziv ta‘lim – o‘quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o‘zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta‘lim jarayonidir. [6]

Hozirgi zamon inklyuziv ta‘lim-tarbiya amaliyotida ustuvorlik qilayotgan an’anaviy o‘qitish ta‘lim oluvchilarni yalpi o‘qitishni va ularning bilish faoliyati passiv tinglovchi sifatida tashkil etilishini ko‘zda tutadi. Ta‘limiy jarayonini olib borishda imkoniyati o‘rtacha baholanadigan ishtirokchi mo‘ljalga olinadi, ishtirokchilarning faolligi, mustaqilligi e‘tibordan chetda qoladi. Jarayon markazida ta‘lim beruvchi subekt sifatida turadi va uni boshqaradi. An’anaviy o‘qitish texnologiyasi asosan “o‘qituvchi-o‘quvchi” munosabatida amalga oshirilib, o‘quvchi pedagogik jarayonning passiv ishtirokchisi, ya‘ni obekti sifatida mazmun kasb etadi.

Inklyuziv ta‘lim jarayonida har qanday ilg‘or pedagogik texnologiya “o‘qituvchi-jarayon-o‘quvchi” munosabatida tashkil etilib, ya‘ni pedagogik jarayon kesimida ham o‘qituvchi, ham o‘quvchi bir chiziqda faoliyat olib boradi. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida ta‘lim jarayoni tashkil etilganda, ta‘lim oluvchi o‘zi izlanishga, muammoning echimini o‘zi topishga, o‘zi mantiqiy



fikr yuritib, yakdil qarorga kelishiga sharoit yaratiladi. Bunda ta'lim beruvchi: boshqaruvchi, yo'naltiruvchi, tashkil etuvchi, kuzatuvchi, yordam beruvchi, nazoratchi sifatida moxirlik bilan pedagogik jarayonda ishtirok etadi.

Davlat ta'lim talablari asosida nogiron bolalar ta'limi va tarbiyasi jarayonini tashkil etishga qaratilgan hozirgi kundagi pedagog-defektologning faoliyati, uning metodik mahoratini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish, ya'ni ularning maqsadli innovatsion faoliyatiga erishish uchun quyidagi bosqichlarda ishlarni tashkil etishni taqozo etadi:

Biz defektolog va logopedlarga ijodiy ish-loyihalarni tanlash va bajarish yoki fanlar bo'yicha dars ishlanmalarini tuzishda taxminiy tayanch tuzilmani tavsiya etamiz[4].

Uni quyidagi sxemada ko'rishimiz mumkin.



Inklyuziv ta'limda bo'lajak maxsus pedagoglarning innovatsion faoliyatini tashkil etishning vazifalari:

- inklyuziv ta'lim ishtirokchilari (MTI)ning kasbiy tayyorgarligini o'rttirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish;
- amaliyotda zamonaviy va axborot texnologiyalarini qo'llash uchun zarur bo'lgan metodik bilimlarini shakllantirish, ko'nikmalarini tarkib toptirishga erishish;
- inklyuziv ta'lim ishtirokchilari ning o'z faoliyatini tanqidiy taxlil qilish, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- pedagogik munosabatlarni insonparvarlilashatirish va demokratlashtirish, o'quvchilarning qobiliyatlari va qiziqishlarini xisobga olgan xolda tabaqalashtirilgan, individuallashtirilgan ta'limni tashkil etishga ko'maklashishi;
- inklyuziv ta'lim ishtirokchilarini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari bilan tanishtirish va bevosita ishtiroki asosida ularni yangi



pedagogik texnologiyalar yaratish va o'zlashtirish yuzasidan maqsadli innovatsiya loyihalarida qatnashishga tayyorlash.

Inklyuziv ta'lim ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlarini tashkil etishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

1. Pedagogik jarayonning zamonaviy pedagogik (individuallashtirilgan, muammoli, xamkorlikda, modulli, loyixalash va didaktik o'yinlar va x.k. lar) va axborot texnologiyalariga asoslangan xolda tashkil etish.

2. Inklyuziv ta'lim defektolog va logopedlarining mustaqil va ijodiy ishlarini samarali tashkil etish.

3. Inklyuziv ta'lim defektolog va logopedlarining inklyuziv malaka oshirishini bosqichma-bosqich tashkil etilishini nazorat qilish (malaka oshirishgacha, malaka oshirish davomida va istiqbolda)

4. Inklyuziv ta'lim defektolog va logopedlarining maqsadli ijodiy izlanishlarini tashkil etish.

Inklyuziv ta'lim defektolog va logopedlarining quyidagi o'qitish texnologiyalaridan foydalanishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir:

1. Xamkorlikda (guruxlarda) o'qitish.

2. Individual o'qitish.

3. Modullar asosida o'qitish.

4. Interfaol usullar asosida o'qitish.

Malaka oshirish kurslarida yoki muassasalarda pedagogik kengashlar va boshqa metodik yig'ilishlarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasi metodalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki agar amaliyotchi usulni bevosita o'zidan o'tkazib, o'zi shu jarayonning ishtirokchisi sifatida anglamasa, defektolog va logopedlar baribir o'zi bilgan, ko'zi o'rgangan an'anaviy yondashuvlardan voz kecha olmaydilar[3].

Hamkorlikda ishlashga asoslangan usullardan foydalanilganda defektolog va logopedlarning:

– o'quv–bilish jarayonida faol ishtirokchi bo'lishi;

– o'z pedagogik faoliyati uchun zarur bo'lgan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi va rivojlantirishiga imkon yaratish;

– dars ishlanmalarini loyihalash va amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini hosil qilish;

– har xil muammoli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va undan chiqishning eng muqobil yo'lini tanlash ko'nikmalarini rivojlantirishga erishildi.

2. Inklyuziv ta'lim defektolog va logopedlari bilan o'tkazilgan mashg'ulotlar, avvalo ular o'rtasida o'zaro hamkorlikning vujudga kelishiga, o'z faoliyatini aniq maqsadga yo'naltirishga imkon yaratdi.



Individuallashtirilgan ta'lim - o'qitish shakli, o'qitish jarayonini tashkil etishning modeli bo'lib, quyidagi xususiyatlarga ega.

1. Ta'lim beruvchi har bir ishtirokchi bilan yakka ishlaydi.

2. Har bir ishtirokchi o'zi qiziqtirgan muammo va qiziqishlari va ehtiyojlari hisobga olingan paketlarga ega bo'lib, ushbu paketlar kursdan oldin tayyorlangan bo'ladi.

Ushbu individual ta'limning afzalligi ishtirokchilarning ta'lim olish jarayonini tashkil etish, ta'lim mazmuni, vositalari va metodlarini tanlashda ularning shaxsiy xususiyatlari va ishlash (fikrlash, anglash, umumlashtirish, amalda qo'llash) tempining tezligiga moslashtirilganligi bilan tavsiflanadi [2].

Inklyuziv ta'lim jarayonida ta'lim-tarbiya sohasidagi masalalarning to'xtovsiz takomillashib borishi va yangi imkoniyatlarning yuzaga kelishi umumta'lim maktablari qatorida inklyuziv ta'lim muassasalarida ta'lim sifat va samaradorligini oshirish vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qitish usullarini muttasil yangilab turishni taqozo etmoqda.

Ta'lim jarayonida qo'llanadigan usul "o'rgatish"ning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish, ma'lum ob'ektni o'rganish uchun nazariy va amaliy faoliyatlarni anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim jarayonida o'rgatish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishini, o'rgatish jarayonini qanday qilib tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. Boshqacha qilib aytganda, o'rgatish usullari har ikkala faoliyatni, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishni hamda o'quvchilar tomonidan o'sha nazarda tutilgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish faoliyatida qo'llanadigan yo'llarni o'z ichiga oladi. Demak, har ikki o'rgatish usullari pedagogik jarayon ishtirokchilari (ta'lim oluvchi va beruvchi)ning o'zaro faoliyati birligini ta'minlashga yo'naltiriladi. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining turfaligi o'rgatiladigan ma'lumoning xarakteriga qarab belgilanadi. Aynan mana shu turfalik ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan yangi-yangi usullarni keltirib chiqaradi.

Adabiyotlar:

1. Farberman B.L. Ilg'or ped. texnologiyalar. T. 1999, 4-bet.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonun va inklyuziya: qanday bo'lishi kerak?" (o'zbekcha). gazeta.uz (9-iyun 2020, 16:00).
3. Shomaxmudova R.Sh. Inklyuziv ta'lim (Xalqaro va O'zbekistondagi tajribalar) Toshkent-2011
4. Mo'minova L.R. Inklyuziv ta'lim. Dastur. T., 2017
5. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika. Chirchiq, 2022.
6. Педагогик атамалар луғати. – Т.: “Фан”, 2008. – Б.47